

**YURAK XASTALIKLARIDA QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR**

Aminjonova Charosxon Akmalovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Botirova Bibixonim Ismatovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi

**Annotatsiya.** yurak kasalliklariga shifo bo'luvchi dorivor o'simliklar, ularning morfologiyasi va ulardan damlamalar tayyorlash usullari haqida berilgan.

**Kalit so'zlar.** dorivor limono't, dorivor valeriana, yer bag'irlagan temirtikan, kiyiko'ti, gipotenziv, spazmolitik, gipertoniya, gipotoniya, yurak ishi faoliyati.

**Dorivor limono't-Melissa officinalis Lamiaceae.**

**O'simlikning tavsifi:** Dorivor limono't labguldoshlar oilasiga mansub, yoqimli limon hidi kelib turuvchi, mayin tuklar bilan qoplangan ko'p yillik o't o'simlik. Ildizi mustahkam. poyasi to'rt qirrali, sershox, bo'yi 120 sm gacha boradi. Mevasi uch qirrali to'q jigarrangli, erta bahordan vegetatsiyasi boshlanadi. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Dorivor limono't daraxtlar tagida, soya-salqin yerlarda o'sadi.

**Ishlatilishi:** Barglari, novdalari-o'simlik gullab turgan davrda yig'ib olinadi. Limono't o'simligi tinchlantiruvchi xususiyatga ega. Limono'tning qaynatma damlamalari yurak ishini quvvatlash uchun, siydik haydovchi, terlatadigan, og'riq qoldiruvchi sifatida ishlatiladi. Ibn Sino o'simlik haqida "limono't yurakni tetik qilib, mustahkamlaydi, ovqatni hazm qiladi, hiqichoq tutganda yordam beradi" deb yozgan. Limono'tning yashil barglarini qon bosimi tez- tez oshib turgan bemorlarga choy o'rnida damlab berilsa, qon bosimi me'yorlashuviga yordam beradi.

**Dorivor valeriana-Valeriana officinalis.**

**O'simlikning tavsifi:** Dorivor valeriana valerianadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Balandligi 2m gacha bo'lib, tik o'suvchi, silindrsimon, mayda qirrali, shoxlanmagan, ichi kovak poya hosil qiladi, Gullari mayda, qalqonsimon ro'vakka to'plangan. Gulkosacha barglari yaxshi rivojlanmagan, gultojisi voronkasimon, besh bo'lakli, uchi ichkariga qayrilgan, oq yoki pushti rangli. Mevasi cho'ziq tuxumsimon, och qo'ng'ir pista. May va avgust oylarida gullaydi.

**Ishlatilishi:** Undan tayyorlangan preparatlar asab tizimini tinchlantiruvchi hamda yurak faoliyatini yaxshilovchi sifatida qo'llaniladi. O'simlikdan olingan xom-ashyo validol, kardiovalel, valokardin, korvalol kabi dorilar asosini tashkil qiladi.

**Yerbag'irlagan temirtikan-Tribulus terrestris.**

**O'simlikning tavsifi:** Yerbag'irlagan temirtikan tuyatovondoshlar oilasiga mansub bir yillik, yerda yotib o'suvchi, o't o'simlik bo'lib, uzunligi 1m ba'zida 3m gacha yetadi. O'simlik asos qismidan boshlab shoxlangan, tukli. Barglari qarama-qarshi joylashgan, 5-7 juft tuxumsimon bargchalarga ega. Mayda yondosh bargchalari bor. Bargchalari lansetsimon yoki cho'zinchoq shaklli, biroz o'tkir uchli, tekis qirrqali. Gullari mayda, sariq, besh (yoki 2-4) ta yulduzsimon joylashgan uchburchak-ponasimon, qattiq, 2-4 tikanli yong'oqlarga ajraladigan quruq meva. O'simlik may-iyun oylarida gullaydi, iyun-iyul oylarida mevasi pishadi.

**Ishlatilishi:** Dorivor preparatlari aterosklerozga qarshi vosita hisoblanib, xolesterin miqdorini kamaytirish, siydik haydash xususiyatiga ega. Tribusponin preparati aterosklerozga qarshi ishlatiladi (umumiy, miya, yurak sklerozini davolashda qo'llaniladi). Tribusponin-steroidlar va saponinlar yig'indisidan iborat-tabletka holida chiqariladi. O'simliklardan olingan diosgenin garmonal preparatini sintezida xomashyo sifatida qo'llaniladi.

**Kiyik o'ti-Ziziphora pedicellata Pazij.**



**O'simlikning tavsifi:** Kiyik o'ti yalpizdoshlar-Lamiaceae oilasiga mansub, ko'p yillik, yovvoyi o't o'simlik. Bo'yi 20-40 cm. Barglari nashtarsimon yoki ingichka nashtarsimon. Poyasi bir nechta, biroz qing'ir-qiyshiq. Gullari kallaksimon to'pgulga yig'ilgan. Guli zigomorf, murakkab gulqo'rg'onli, ikki jinsli. Mevasi 4 yong'oqchaga bo'linadigan uvoq meva.

**Ishlatilishi:** O'simlikning yer ustki qismi shifobaxsh hisoblanadi. Tibbiyotda gipotenziv, spazmolitik, peshob haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Kiyik o'tining qaynatma va damlamalari xalq tabobatida tomoq qitir bo'lib qirilganda, o'pka va yurak xastaliklarida, qon bosimi ko'tarilganda tavsiya etiladi. Bundan tashqari parfumeriyada, pazandachilikda ham keng qo'llaniladi. Alkogolsiz ichimliklar tarkibida xushbo'y hid berish uchun qo'shiladi.

**Xulosa:** Xulosa qiladigan bo'lsak, dorivor o'simliklar inson hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dorivor o'simliklar-odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar-giyohlardir. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-

darmonlarning qariyb 40-47% o'simlik xomashyolaridan olinadi. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tuganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalaridan foydalaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.X.Yoziyev, N.Z.Arabova. Dorivor o'simliklar. Toshkent-2017.
2. X.X.Xolmatov, A.I.Karimov. Dorivor o'simliklar. Toshkent Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.
3. Akmalovna, A. C. (2022). SOG'LOM AVLOD QOLDIRISH-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. Uzbek Scholar Journal, 5, 177-181.
4. Aminjonova, C. A. (2022). Sog'lom ona va bola–baxtli kelajak asosi. Scientific progress, 3(1), 874-880.
5. Akmalovna, A. C. (2022, March). BIOLOGICAL PROPERTIES OF SOYBEAN. In E Conference Zone (pp. 90-94).
6. Аминжонова, Ч. А., & Мустафаева, М. И. (2017). БИОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОДОРΟΣЛЕЙ БИОЛОГИЧЕСКИХ ПРУДОВ г. БУХАРЫ. In Экологические проблемы промышленных городов (pp. 387-389).
7. Aminjonova, C. A. (2021). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. Смоленский медицинский альманах, (1), 15-18.
8. AMINJONOVA, C. (2021). PROBLEMS AND METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
9. Akmalovna, A. C. (2022). Characteristics and Advantages of Soybean Benefits in Every way. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(8), 67-69.
10. Akmalovna, A. C., & Olimovna, A. G. (2020). METHODOLOGY AND PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES AND SECONDARY EDUCATIONAL SCHOOLS. Eurasian Medical Journal, (2), 6-8.
11. Akmalovna, A. C. (2022). SOYA-OQSIL TANQISLIGINI HAL ETISHDA ENG MUHIMMANBALARDAN BIRI. БАҲАҚАРОПЛИК ВА ЕТАҚЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 410-415.
12. Aminjonova, C. A. (2022). TALABALAR O'QUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN VA METODLARIDAN FOYDALANISH. Scientific progress, 3(3), 447-453.
13. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "БИОЛОГИЯ" В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ (pp. 8-11).
14. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). ОИЛАВИЙ ШИФОКОР АМАЛИЁТИДА ИНСУЛЬТ ЎТКАЗГАН БЕМОРЛАРДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ. ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1).
15. Асроров, А. А., & Аминжонова, Ч. А. (2021). Оценка Состояния Когнитивных Нарушений У Пациентов Перенесших Инсульт В Практике Семейного Врача. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 397-401.
16. Aminjonovich, A. A., & Akmalovna, A. C. (2021, March). METHODS OF TEACHING THE SUBJECT "BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 38-40).
17. Хасанов, С. А., Асроров, А. А., & Вохидов, У. Н. (2006). Распространенность хронического тонзиллита в семье и его профилактика. Врач-аспирант, 12(3), 214-218.

18. Khasanov, S. A., Asrorov, A. A., & Vokhidov, U. N. (2006). Prevalence of chronic family tonsillitis and its prevention. *Vestnik Otorinolaringologii*, (4), 38-40.
19. Асроров, А. А., & Вохидов, У. Н. (2006). Частота встречаемости гаптоглобина и церулоплазмина у детей больных хроническим тонзиллитом. *Врач-аспирант*, 11(2), 180-184.
20. Асроров, А. А. (2020). ЧАСТОТА ВСТРЕЧАЕМОСТИ ГАПТОГЛОБИНА И ЦЕРУЛОПАЗМИНА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМ ТОНЗИЛЛИТОМ. *Новый день в медицине*, (4), 626-629.
21. Асроров, А. А., Гафарова, С. У., & Мухамеджанова, М. Х. (2016). Формирование хронического тонзиллита у детей в зависимости от клинко-иммуногенетических факторов. *Педиатрический вестник Южного Урала*, (2), 10-20.
22. Асроров, А. А., Юлдашева, Р. У., Халилова, Ф. А., Ашурова, Н. Г., Адизова, Д. Р., & Джураева, Н. О. (2020). Dermatoglyphic indexes of hand fingers at children with chronic tonsillitis. *Новый день в медицине*, (1), 136-139.
23. Асроров, А. А., Юлдашева, Р. У., Халилова, Ф. А., Ашурова, Н. Г., Адизова, Д. Р., & Джураева, Н. О. (2019). DERMATOGLYPHIC INDEXES OF HAND FINGERS AT CHILDREN WITH CHRONIC TONSILLITIS. *Новый день в медицине*, (4), 215-218.
24. Асроров, А. А., Ярикулов, Ш. Ш., & Турдиев, М. Р. (2017). Особенности встречаемости и повышение эффективности лечения семейного хронического тонзиллита у детей. *Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области*, 3(2 (17)), 14-23.
25. Асроров, А. А., Жарылкасынова, Г. Ж., Юлдашова, Р. У., & Ахмедов, Н. И. (2017). ОСОБЕННОСТИ ВСТРЕЧАЕМОСТИ ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА И АНАЛИЗ КЛИНИКО-ИММУНОГЕНЕТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ. V съезд терапевтов Забайкальского края, 14-15 марта 2017 года, г. Чита [Электронный ресурс]: сборник научных трудов/Под общей ред. НВ Ларёвой; Читинская государственная медицинская академия.-Электрон. текстовые дан.-Чита: РИЦ ЧГМА, 2017.-1 электрон. опт. диск (CD-ROM)-Мин. систем. требования: IBM PS 100 МГц; 16 Мб RAM; Windows XP; AdobeReader Сборник содержит статьи и тезисы докладов работников Читинской государственной медицинс, 15.
26. Асроров, А. А., Юлдашова, Р. У., Тошева, Х. Б., & Гафарова, С. У. (2016). АНАЛИЗ КЛИНИКО-ИММУНОГЕНЕТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА У ДЕТЕЙ. *Таърир ҷайъати*, 21.
27. Асроров, А. А., Косимов, У. У., Мусаева, Р. Х., & Нуритов, А. И. (2015). ФОРМИРОВАНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА В СЕМЬЕ. *Редакционная коллегия*, 4.
28. Asrorov, A. A. (2022). Yangi, sog'lom va buyuk ma'rifatli jamiyatni yaratishda yoshlarning o'рни. *Scientific progress*, 3(1), 868-873.
29. Aminjonovich, A. A. (2022). A Healthy Mother and Child is the Key to a Happy Future. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(8), 63-66.
30. Asrorov, A. A. (2022). THE MOST IMPORTANT FACTORS IN THE ORGANIZATION OF PHYSICALLY FIT MEDICAL GROUPS. *Scientific progress*, 3(2), 1132-1138.
31. Асроров, А. А., Жарылкасынова, Г. Ж., Солиев, А. У., & Халилова, Ф. А. (2013). THE MEANING OF CHRONICAL MEDIA OTITIS IN TNE CONDITIONS OF FAMILY AND ITS PROPHYLACTIC. *Новый день в медицине*, (4), 21-23.
32. Асроров, А. А. (2022). СУРУНКАЛИ ТОНЗИЛЛИТ БИЛАН ОҒРИГАН БОЛАЛАРДА ГАПТОГЛОБИН ВА ЦЕРУЛОПАЗМИННИНГ УЧРАШ ҲОЛЛАРИ. *Conferencea*, 234-241.

- 
33. Aminjonovich, A. A. (2022). AHOLI ORASIDA ALLERGIK TUMOV KASALLIGINI SKRININGI SIFATINI OSHIRISH. Uzbek Scholar Journal, 5, 189-191.
34. Асроров, А. А. (2022). МАМЛАКАТИМИЗ ФАРМАЦЕВТИКА СОҶАСИ УЧУН ЯНА БИР РИВОЖЛАНИШ ДАВРИ БОШЛАНДИ. Scientific progress, 3(3), 725-730.
35. Aminjonovich, A. A. (2022). TREATMENT AND DIAGNOSTIC METHODS OF PNEUMONIA IN CHILDREN OF UZBEKISTAN. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 560-566.